

JINOYAT QONUNINING AMAL QILISH DOIRASI

Sanetullaeva Muslihimaga Nagmetulla qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti “Jinoyat qonunchiligini qo‘llash nazariyasi va amaliyoti” mutaxassisligi magistri

muslihimasanetullaeva41@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada jinoyat qonunining amal qilish uslubi, uning hudud, vaqt bo'yicha amal qilishi va uning istisno holatlar doirasida qo'llanish qoidalarini yoritib beriladi. Jinoyat kodeksining tushunchasi, amal qilish doirasi, uning mazmuni va vazifalari, shuningdek jinoyat qonunining o'rni bayon etilgan ushbu maqolada o'quvchilar qidirgan jinoyat qonuniga tegishli barcha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat qonuni, jinoyat, qonun, manba, hudud, fuqaro, chet el fuqarosi, vaqt.

ОБЛАСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ УГОЛОВНОГО ПРАВА

Санетуллаева Муслихима Нагметулла кизи

Степень магистра по специальности «Теория и практика применения уголовного права» Ташкентского государственного юридического университета

muslihimasanetullaeva41@gmail.com

Аннотация: в статье рассматриваются вопросы методологии применения уголовного закона, его территориального и временного действия, а также правила его применения в исключительных случаях. В данной статье, в которой описывается понятие Уголовного кодекса, сфера его применения, его содержание и функции, а также роль уголовного права, представлена вся информация по уголовному праву, которую искали читатели.

Ключевые слова: уголовное право, преступление, закон, источник, территория, гражданин, иностранный гражданин, время.

SCOPE OF APPLICATION OF CRIMINAL LAW

Sanetullaeva Muslimhima Nagmetulla qizi

Master's degree in "Theory and Practice of Criminal Law Application" Tashkent State
University of Law
muslihimasanetullaeva41@gmail.com

Annotation: this article discusses the methodology of application of criminal law, its application in terms of territory, time, and the rules of its application in exceptional cases. This article, which describes the concept of the Criminal Code, the scope of application, its content and tasks, as well as the role of criminal law, provides all the information related to criminal law that readers are looking for.

Keywords: criminal law, crime, law, source, territory, citizen, foreign citizen, time.

KIRISH

Jinoyat qonunchiligining qo'llanilishi masalasi juda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda, ayniqsa hozirgi ko'plab siyosiy nizolar avj olayotgan davrda. Fuqarolarning kundalik hayotidagi ijtimoiy munosabatlar ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan bo'ladi. Fuqaro tomonidan huquqbuzarlik sodir etilishi natijasida bunday munosabatlarning shakllanishi ham istisno emas. Jinoyat sodir etilgan huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq sohasi esa jinoyat huquqi hisoblanadi.

O'zbekistonda jinoyat qonunining amal qilish masalalariga oid normalarni takomillashtirish zarurati mavjud, asosan qonunning hudud bo'yicha amal qilishi bo'yicha sababi, xususan, xorijiy davlatlar jinoyat sodir etgan O'zbekistonga kirib kelgan shaxslarning aybliligi masalasini hal etish, uni horij davlatining yoki mamlakatimizning qonunlari asosida jazoga tortish masalalari bo'yicha

qonunchilikda bo'shliqlar mavjud bo'lib, bu bo'yicha tushunmovchiliklar yuzaga kelmoqda.

Jamiyatimizda jinoyatchilikni kamaytirish va bartaraf etish uchun jinoiy-huquqiy normalarni takomillashtirish va huquqiy tadbirlar o'tqazishga qaratilgan islohatlar ortidan salmoqli ishlar olib borilmoqda. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, agar barcha birdek harakat qilib, oilalar muammolaridan to'liq xabardor bo'lib, ularni hal etishga ko'maklashgan, jinoyatchilikning barvaqt oldini olish choralarini ko'rganda edi, bugun natijalar umuman boshqacha bo'lardi. Ammo, jinoyatchi shaxslar va jinoyatchilikka qarshi kurashishda haligacha eskicha ishlash tizimidan voz kecha olmayapmiz. Huquqni muhofaza qiluvchi idoralar bu faoliyatga ko'rsatkichlarni oldingi davr bilan taqqoslash orqali baho berib kelmoqda. Aslida bitta bo'lsa ham jinoyat sodir etilishi hammamizni tashvishga solishi kerak.¹

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jinoyat qonuni deb Konstitutsiyaga muvofiq qabul qilingan, jinoyat-huquqiy munosabatlarni, ya'ni jinoyat va unga nisbatan javobgarlikni tartibga soluvchi normativ hujjat tushuniladi. Mamlakat hududida amal qilayotgan yagona jinoyat qonuni — O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi hisoblanadi. Jinoyat javobgarligini ko'zda tutuvchi yangi qonunlar faqat Jinoyat kodeksiga kiritilishi lozim, aks holda ular qo'llanilmaydi.

Jinoyat huquqi sohasi boshqa huquq tarmoqlari ichida o'z manbalarining konkretligi bilan alohida ajralib turadi. Yuridik fanlar doktori, professor I.Rustamboyev jioyat huquqi tushunchasini quydagicha, 1) ma'lum bir qonun

¹ 2018-yil 27-iyuldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Jinoyatchilikning oldini olish, davlat idoralari va jamiyatning bu boradagi mas'uliyatini oshirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishi murojaatnomasi. // O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik bazasi // xabar.uz.

sohasi; 2) sohaviy huquq tarmog'i; 3) fanning bir tarmog'i; 4) nazariy o'quv predmeti ma'nolarida qo'llanilishini keltirib o'tgan.²

Jinoyat Kodeksining 1-moddasiga ko'ra jinoyat to'g'risidagi milliy qonun hujjatlari Konstitutsiya va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga asoslangan hisoblanib, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksidan iboratdir.

Quyida biz jinoyat qonuni asosida uning amal qilish doirasini ko'rib chiqamiz. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining II bobi kodeksining amal qilish doirasiga bag'ishlangan bo'lib, unga 11,12,13-moddalar kiradi va bu moddalarda jinoyat qonunining hudud va vaqt bo'yicha amal qilishi haqida tushunchalar keltirilgan.

Jinoyat sodir etilgan vaqt oqibatlarning boshlanish vaqtidan qat'i nazar, ijtimoiy xavfli harakatni (harakatsizlikni) sodir etish vaqti deb tan olinadi. Jinoyat qonunining amal qilish muddati uning kirishi va bekor qilinishi o'rtasidagi davr bilan belgilanadi. Boshqacha qilib aytganda, qonun kuchga kirgandan keyin faqat bir muddat amal qiladi. Qonun o'tmishdagi harakatlarga taalluqli emas, ya'ni orqaga qaytmaydi. Uch turdagi qonunlar orqaga qaytish kuchiga ega. Bu qonunlar, (1) jinoyatni bartaraf etuvchi, (2) jazoni yengillashtiruvchi va (3) jinoyat sodir etgan shaxsning ahvolini boshqacha tarzda yaxshilovchi.

NATIJALAR

Chet el fuqarolari, shuningdek O'zbekiston hududida doimiy yashamaydigan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston hududidan tashqarida sodir etgan jinoyatlari uchun faqat xalqaro shartnomalar yoki bitimlarda nazarda tutilgan hollardagina ushbu Kodeks bo'yicha javobgarlikka tortiladilar.

² Rustamboyev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. 1. Jinoyat haqida ta'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan. – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. –7-bet.

O'zbekiston Narkotik moddalarni nazorat qilish milliy axborot-tahlil markazi bergan ma'lumotga ko'ra, 2022-yil davomida O'zbekiston hududida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning noqonuniy muomalasi bilan bog'liq jinoyatlar sodir etgani uchun 96 ta holatlar bo'yicha xorijiy davlatlarning 99 nafar fuqarosi hibsga olingan. Jumladan, 12 nafar Afg'oniston, 32 nafar Tojikiston, 25 nafar Qirg'iziston, 14 nafar Qozog'iston, 8 nafar Rossiya, 5 nafar Turkiya, 1 nafar Fransiya, 1 nafar AQSH va 1 nafar Belarus fuqarolaridir. Ulardan 539,3 kg giyohvandlik vositalari va 1921 dona psixotrop moddalar hamda 7928 dona kuchli ta'sir qiluvchi dori preparatlari musodara qilingan.³

MUHOKAMA

Xorij ilmiy va jinoyat huquqi adabiyotida oddiy tarkibga ega bo'lgan yakunlangan jinoyatning sodir etilgan joyini aniqlashga oid to'rt xil yondashuv taklif qilingan:

Birinchidan, jinoyatni sodir etish joyini faqatgina harakat (yoki harakatsizlik) amalga oshirilgan joyiga qarab aniqlashni taklif etiladi, ijtimoiy xavfli oqibatlarning yuzaga kelgan joyiga qaramay.

Ikkinchidan, forma tarkibiga ega bo'lgan jinoyatni sodir etish joyini harakat (yoki harakatsizlik) amalga oshirilgan joyida aniqlash, material tarkibiga ega bo'lgan jinoyatni esa ijtimoiy xavfli oqibatlarning yuzaga kelgan joyiga qarab aniqlash taklif qilinadi.

Uchinchidan, forma tarkibiga ega bo'lgan jinoyatni Rossiya Federatsiyasining hududida sodir etilgan deb hisoblashni, material tarkibiga ega

³ <https://daryo.uz/2023/06/26/ozbekiston-hududida-giyohvandlik-vositalari-bilan-bogliq-jinoyatlarni-sodir-etgan-chet-el-fuqarolari-soni-malum-qilindi>.

bo'lgan jinoyatni esa jinoyatchi Rossiya hududida harakat (yoki harakatsizlik) qilgan yoki ijtimoiy xavfli oqibatlar Rossiya hududida yuzaga kelgan holatda hisoblash taklif qilinadi.

Va nihoyat, to'rtinchidan, jinoyat faqatgina harakat (yoki harakatsizlik) va ijtimoiy xavfli oqibatlar, jinoyatning obyektiv tomonini tashkil etuvchi barcha elementlar Rossiya hududida sodir bo'lganda, jinoyat Rossiyada sodir etilgan deb tan olinishi taklif etiladi.

Ushbu yondashuvlarning har biri turli mamlakatlarning jinoyat-huquqiy tizimlarida turlicha talqin qilinadi va jinoyat yurisdiksiyasini belgilashda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan, har bir yondashuv o'ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega bo'lib, ular jinoyat-huquqiy siyosatning umumiy yo'nalishi, suverenitet masalalari va xalqaro huquq normalari bilan bevosita bog'liq.

Xulosa.

Maqolada muallif tomonidan jinoyat qonunchiligining amal qilish doirasi bilan bog'liq ba'zi mulohazalar bo'yicha berilgan ba'zi sharhlar tasvirlangan. Muallif, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi milliy jinoyat qonunchiligining hududiy ko'lamini belgilashini ta'kidladi. Unda ko'rsatilgan qoidalar hududiylik prinsipi ifodalaydi, ya'ni jinoyat sodir etilgan bir davlatning Jinoyat kodeksini qo'llash prinsipi ko'rsatilgan. Shunga muvofiq, O'zbekiston hududida jinoyat sodir etgan barcha shaxslar qaysi davlat fuqarosi bo'lishidan yoki bo'lmasligidan qat'i nazar, faqat O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi bo'yicha javobgar bo'ladi.

Jinoyatni sodir etish vaqti va joyi o'ta chambarchas bog'langan bo'lib, ular faqat bitta shart-sharoitga asoslanib aniqlanishi kerak. Ushbu pozitsiyaning

asoslanishiga quyidagi omillar kiritiladi: mantiq, sogʻlom tafakkur va falsafiy nuqtai nazar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Белобородов, В. Б. "Территориальный принцип действия уголовного закона: место совершения преступления как место наступления общественно опасных последствий." Вестник Московского университета. Серия 11. Право 3 (2018): 89-101.
2. Perkins, Rollin M. "The territorial principle in criminal law." Hastings LJ 22 (1970): 1155.
3. Rustambayev, M. X. "O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi." T.: "Ilm Ziya 5 (2011).